

**ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.124.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**TOJIBOYEV SHERALI IMOMALI O‘G‘LI**

**PAXTA TERISH MASHINALARI BILAN AGREGATLANGAN TRAKTOR  
DVIGATELLARINING SOVUTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalari va ularni ishlatish

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

**AVTOREFERATI**

**Andijon– 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Tojiboyev Sherali Imomali o'g'li**

Пахта terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimini takomillashtirish.....5

**Тожибоев Шерали Имомали угли**

Совершенствование системы охлаждения двигателей тракторов агрегатированных с хлопкоуборочными машинами.....24

**Tojiboyev Sherali Imomali o'g'li**

Improvement of the cooling system of tractor engines aggregated with cotton pickers.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....50

**ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.124.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOJIBOYEV SHERALI IMOMALI O‘G‘LI

**PAXTA TERISH MASHINALARI BILAN AGREGATLANGAN TRAKTOR  
DVIGATELLARINING SOVUTISH TIZIMINI TAKOMIL LASHTIRISH**

05.08.06 – G‘ildirakli va gusenitsali mashinalari va ularni ishlatish

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

**AVTOREFERATI**

Andijon– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T2133 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.astiedu.uz](http://www.astiedu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Shermuxamedov Abdulaziz Adilxakovich,**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Bayboboyev Nabijon G'ulomovich,**  
texnika fanlari doktori, professor,  
**Tadjibayev Abdunabi Abdurahmonovich,**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat texnika instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.124.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «05» 09 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 39-uy. Tel.:(99874)223-47-148 /faks (0-374) 223-43-67; e-mail: [info@astiedu.uz](mailto:info@astiedu.uz)).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat texnika institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (2 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 39-uy. Tel.:(99891) 612-30-06; /faks (0-374) 223-43-67; e-mail: [asti-arm@umail.uz](mailto:asti-arm@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 20.08 kuni tarqatildi.  
(2025 yil 20.08 dagi № 2 -raqamli reestr bayonnomasi).



**U.M. Turdaliyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**Sh.X.Yo'ldashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**K.K.Yuldashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori

## **KIRISH (FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI).**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tajribasida mashinasozlik va avtomobilsozlik mahsulotlarining sifatini va chidamliligini oshirish uchun ularni ishlab chiqarish jarayonida qismlarini tayyorlashda energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Butunjahon qishloq xo'jaligi mashinalari sanoati ishlab chiqarish ma'lumotlar bazasi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab taxminan 3,05 million dona qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarilgan., ularning taxminan 41,4% traktor va paxta terish mashinalaridir, ishlab chiqarilgan traktor va paxta terish mashinalarni butlovchi qismlarini ishlab chiqarishda samarador usul va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi<sup>1</sup>. Shu jihatdan traktor va paxta terish mashinalari ichki yonuv dvigatellari bilan jihozlangan avtotraktor vositalarini texnik holatini yaxshilash hamda xizmat muddatini oshirish uchun ish sifatini yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda traktor va paxta terish mashinalari ishlab chiqarish sanoati sohasida qo'llaniladigan dvigatel sovutish tizimlarining xizmat muddatini oshirish ustida keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, dvigatel sovutish tizimlari qismlarini ishlab chiqarishda resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash va ularning ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, ichki yonuv dvigatellarining sovutish tizimidagi issiqlik almashinuv jarayonlarini modellashtirish tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Bunda dvigatel sovutish tizimiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar ta'sirini aniqlash usuli va ularning sovutish tizimi parametrlariga ta'sir darajasini miqdoriy baholash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz agrosanoatida mehnat sarfini kamaytirish, mashinalar ish sifatini oshirish, ilg'or texnologiyalar, resurslarni tejash va usullar asosida texnikalarning talab darajadagi ish sifatini ta'minlash yo'llarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2020-2026 yillarda respublika hududlarida paxta hosili terimini mexanizatsiyalash darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi jumladan "..., paxta hosilini mexanizatsiya yordamida yig'ishtirib olishni ta'minlash o'z ichiga paxta dalasining agrofonini mexanizatsiyalashgan terimga tayyorlash bilan bog'liq bir nechta murakkab masalalarni, jumladan, zamonaviy va yuqori samarali paxta terish mashinalarini ishlab chiqarish..."<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda PTM sovutish tizimi parametrlarini oldindan va sinash davomida baholash usullarini takomillashtirish, ish ko'rsatkichlarini baholashning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish orqali ishlatish samaradorligini oshirish hamda mashinalarni sinashga ketadigan sarf xarajatlarni kamaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> <https://www.disser.uz>

<sup>2</sup>2020 yil 14 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 21-sonli "Respublika hududlarida paxta hosili terimini mexanizatsiyalash darajasini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 1-fevraldagi PQ-4969-sonli “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarmog‘ida sog‘lom raqobat muhitini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II.“Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Traktor va paxta terish mashinalari dvigatellarining sovutish tizimi konstruksiyasini takomillashtirish hamda ish qobiliyatlarini belgilovchi asosiy parametrlarini hisoblash ishlarini qulaylashtirish va aniqligini oshirish borasida xorij va mamlakatimiz olimlar tomonidan qator ishlar olib borilgan.

Jumladan, MDH va xorijiy mamlakatlardan V.Z.Babicheva, A.K.Gavrilova, R.M.Petrichenko, V.V.Burkov, Y.A.Kulikov, G.A.Kurmashev, R.T.Xakimov, O.N.Didmanidze, A.I.Yakubovich, G.M.Kuxarenok, V.Ye.Tarasenko, V.V.Efros, John Walter, P. K. Trivedi, N. B. Vasava, Gogineni Prudhvi, Gada Vinay, G.Suresh Babu, M.A.Fayazbakhsh, G.J.Kim, A.M.Jacobi, Masoumeh Jafari, T.Korpinen, A.V.Nadkar, A.A.Gureyev, M.A.Grigorev, R.Z.Kavtaradze, A.K.Kostin, M.I.Levin, F.L.Livensev, N.M.Lukov, A.V.Nikolenko, R.M.Petrichenko, M.R. Petrichenko hamda mamlakatimiz olimlaridan O.V.Lebedev, Q.A.Sharipov, A.A.Shermuxamedov, T.I.Asqarxodjayevlar tomonidan olib borilgan ishlarni alohida e‘tirof qilish mumkin.

Hozirgi vaqtda tadqiqotlar natijasida traktor va paxta terish mashinalari ishlab chiqarish sanoatida muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsada, ammo traktor va paxta terish mashinalarini ishlab chiqarilgandan keyingi ekspluatatsiya jarayonida yuzaga keladigan nosozliklarni bartaraf qilish, ichki yonuv dvigatellarining sovutish tizimiga salbiy ta‘sir ko‘satuvchi tashqi omillar jarayonini optimallashtirish, sovutish tizimi parametrlariga ta‘sir darajasini miqdoriy baholash bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan. Shuningdek, bu tadqiqotlarda sovutish tizimlarining ratsional parametrlarini tanlash va tanlangan sxemalarni tahlil qilish, ko‘pincha, grafoanalitik usullar bilan bajarilgan. Sovutish tizimining ratsional parametrlarini EHM dan foydalanib, kompleks hisoblash usuli ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatdi.

**Tadqiqodning maqsadi.** Paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimini takomillashtirish orqali ish samaradorligini oshirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan traktor dvigatellarining harorat-dinamik ko‘rsatkichlarini tahlil etish asosida dvigatel sovutish tizimidagi issiqlikni modellashtirish hamda sovutish tizimiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimi, jumladan qo‘shimcha tozalovchi qurilma tizimi parametrlarini nazariy tadqiq qilish;

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimi, jumladan qo‘shimcha tozalovchi qurilma tizimi parametrlarini eksperimental tadqiq qilish;

nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarini solishtirma tahlil qilish;

tadqiqot natijalarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish va ularni joriy etishning iqtisodiy samarasini baholashdan iborat.

**Tadqiqotning predmeti** - paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimida tashqi omillar ta‘sirida issiqlik o‘zgarishi jarayoni tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimi parametrlarini asoslashda nazariy mexanika, gidrodinamika, matematik tahlil va matematik statistika qoidalari, statik va dinamik parametrlarini sonli hisoblash usullari, eksperimentlarni rejalashtirish va natijalarni qayta ishlashning matematik usullari, ekspluatatsion xususiyatlarni aniqlashning me‘yoriy hujjatlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellari sovutish tizimiga ta‘sir etuvchi omillarga bog‘liq ravishda o‘zgarish bog‘lanishlari asosida sovutish tizimi uchun takomillashtirilgan sxema va uning tajriba namuna konstruksiyasi joriy qilingan hamda paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktorning ekspluatatsiya jarayonidagi samaradorligi ta‘minlangan.

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatelinining sovutish tizimini kompleks hisoblash uslubi orqali atrof-muhit harorati va ifloslanishi, dvigatelning ish rejimi, uning butun massasi haroratining o‘zgarishi, radiatorning old yuzasidagi panjaralarning havo o‘tkazuvchanligi pasayishi kabi omillar ta‘sirida sovutish tizimining ish jarayonida haroratning o‘zgarishi dinamikasi aniqlangan;

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimiga ta‘sir etuvchi omillar (atrof-muhit harorati va ifloslanishi, dvigatelning ish rejimi, uning butun massasi haroratining o‘zgarishi, radiatorning old yuzasidagi panjaralarning havo o‘tkazuvchanligi pasayishi)ga bog‘liq ravishda sovutish tizimiga o‘rnatilgan qo‘shimcha tozalovchi qurilmaning sxemasi va elementlarini hisoblash uslubi ishlab chiqilgan;

sovutish tizimiga o‘rnatilgan qo‘shimcha tozalovchi qurilma tizimining parametr (ressiver, forsunka, truboprovod, kollektor)larini hisoblash uslubi ishlab chiqilgan va asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktorlarning ekspluatatsiya jarayonida samaradorligini pasaytirishiga sabab bo‘ladigan atrof-muhit harorati va ifloslanishi, dvigatelning ish rejimi (ya‘ni silindr devorlaridan sovutish suyuqligiga yetkazib beriladigan issiqlikning o‘zgarishi), dvigatelning butun massasi

haroratining o'zgarishi, radiatorga kirishidagi havo haroratining o'zgarishi, radiatorning old yuzasini to'r yoki to'rlar bilan qoplash, atrof panjaralari havo massasini o'tish qismlarini yopishi, havo yo'li orqali havo oqimining pasayishi va radiatorga kirish joyida havo haroratining oshishi kabi omillarning tavsiflarini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatelining sovutish tizimini kompleks hisoblash uslubi turli omillar ta'sirida sovutish tizimining ish jarayonida haroratning o'zgarishi dinamikasini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatelining sovutish tizimiga qo'shimcha tozalovchi qurilmani o'rnatish orqali uning samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** izlanishlarning zamonaviy uslub va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimining konstruktiv, statik, kinematik parametrlari va ish rejimlarini nazariy jihatdan asoslash nazariy mexanika, gidravlika va matematik modellashtirish qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika uslublari bilan ishlov berilganligi, paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimi dinamik hisoblash uchun ishlab chiqilgan EHM dasturini amaliyotga joriy etilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro mosligi, dala sinovlari o'tkazilib, amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatelining sovutish tizimlari parametrlarini aniqlash imkonini beradigan matematik modellar, analitik bog'lanishlar va hisobiy usullardan barcha turdagi dvigatellarning sovutish tizimi parametrlarini asoslashda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimi tajriba-sinov nusxalarini ishlab chiqishda loyihalash sifati va samaradorligini oshirish, tajriba-konstruktorlik va zavod sinovlarini o'tkazish xarajatlarini qisqartirish, ekspluatatsiya sharoitida yonilg'i-moylash materiallari sarfini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishga olib keladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimiga o'rnatilgan qo'shimcha tozalovchi qurilmaning sxemasi, elementlarini hisoblash uslubi va parametrlari asosida ishlab chiqilgan tajriba namunasi Namangan viloyati Pop tumanining "Chig'anoq sohili" va "Pop-Olmos gavhari" fermer xo'jaliklarida xo'jalik sinovlaridan o'tkazilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 29 maydagi 05/04-04-238-son ma'lumotnomasi, dalolatnomalar, Pop tuman qishloq xo'jaligi bo'limining 52-son ma'lumotnomasi);

Natijada paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktorning ish unumdoligini 25%ga oshirishga erishilgan;

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimini kompleks hisoblash uslubi orqali turli omillar ya'ni atrof-muhit harorati va ifloslanishi, dvigatelning ish rejimi, uning butun massasi haroratining o'zgarishi, radiatorning old yuzasidagi panjaralarning havo o'tkazuvchanligi pasayishi ta'sirida dvigatel sovutish tizimining ish jarayonida haroratning o'zgarish dinamikasi joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 29 maydagi 05/04-04-238-son ma'lumotnomasi, Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi "Marg'ilon mexanika zavodi" MCHJ ning 2022 yil 9 fevraldagi 21-son ma'lumotnomasi). Natijada, sovutish tizimi uchun qurilmaning tajriba nusxalarini ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan.

paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatelinining sovutish tizimini kompleks hisoblash uslubi asosida sovutish tizimidagi parametrlarni ratsional tanlash hisobiga issiqlik taqsimlanishi va tarqalishi jarayonlarini aniqlashtirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 101 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyotga joriy etilganligi, ilmiy ishning aprobatsiya natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mavzu bo‘yicha ilmiy texnik adabiyotlarning tahlili, muammoni shakllantirish, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida hozirgi vaqtda yurtimiz va jahon mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan paxta terish mashinalari, paxta terish mashinalar bilan agregatlangan traktorlar va ular dvigatellarining sovutish tizimi ish jarayoniga oid ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan va zarurati ko‘satib berilgan hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.


Traktor dvigatellarining sovutish tizimi hamda uning elementlarini mustahkamlik, ishonchlilik va ekspluatatsion xususiyatlari, konstruksiyasini takomillashtirish hamda harorat-dinamik ko‘rsatkichlarini yaxshilash borasida mamlakatimiz va xorijiy olimlari tomonidan qator ishlar olib borilgan va hozirda ham bu ishlar davom etmoqda.

Jumladan, mamlakatimiz olimlaridan O.V.Lebedev, M.Sh.Alimov, A.A.Shermuxamedov, T.I.Asqarxodjayevlar MDH va xorijiy mamlakatlardan A.K. Gavrilova, R.M.Petrichenko, V.V.Burkov, Y.A.Kurmashev, R.T.Xakimov, O.N.Didmanidze, A.I.Yakubovich, G.M.Kuxarenok, V.Y.Tarasko, A.N.Ostrovsev, L.A.Chernyayev, T.B.Stankevich, T.A.Gavrilov, B.A.Grigoryev, V.P.Gribanov, J.Y.Chang, H.L.Kevin, M.L.Nasrabadi, D.P.Finn, A.A.Gureyev, M.A.Grigorev, J.P.Yadav, R.S.Bharat, N.M.Lukov, A.V.Nikolenko, R.M.Petrichenko, N.A.Bolshakov va boshqalar tomonidan mavzuga oid tadqiqotlar olib borilgan.

DSTning ratsional parametrlarini tanlashda va ishlab chiqilgan kinematik sxemalarni tahlil qilishda mavjud hisob usullarining tahlili ularning aksariyati analitik usullarda bajarilganligini ko‘rsatadi. DSTning alohida qismlari uchun matematik modellar tuzilgan va analitik usullarda yechilgan, lekin DSTning ratsional parametrlarini ish jarayonini hisobga olgan holda EHM dan foydalanib, kompleks hisoblash usuli ishlab chiqilmagan.

Markaziy Osiyo mintaqasida ishlash paytida suyuqlik radiatorlari va ularning elementlarining holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, yuqori harorat va changli havodagi avtotraktorlar juda past resursga, ishonchlilikka va yomon ishlash xususiyatlariga ega. Yuqori harorat va changli havo sharoitida transport vositalari sovutish tizimlarining ishlash muddati 2 baravarga qisqartirilishi, energiya ko‘rsatkichlari 22-25 foizga yomonlashishi aniqlangan.

Dvigatel sovutish tizimining umumiy sxemasi 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Dvigatel sovutish tizimining umumiy sxemasi.

1-rasmida dvigatellar sovutish tizimi suyuqlikni ratsional haroratni saqlash imkonini beruchi bir nechta elementlardan tashkil topgan. Dvigatel 1 ishga tushishi bilan ishqalanuvchi detallar dvigatel devorlariga issiqlikni uzata boshlaydi. Dastavval dvigatelning devorlari orqali suyuqlik harakatlanib dvigatelni qisqa muddut ichida ratsional haroratgacha qizib olishiga termostat 3 orqali nazorat qilinadi. Ma’lum bir haroratga yetganda ( $80^{\circ}\text{C}$ ) termostat ochila boshlaydi. Termostat suyuqlikni radiator 4 ga yo’naltiradi. Radiatordan o’tgan suyuqlik trubkalar 5 orqali idish 7 ga yo’naltiriladi va ventil 7 ochilganda nasoslar 8 va 9 ishga tushib dvigatelga qaytadan yo’naltiriladi. Nasos dvigatel tirsakli valiga bog’langan bo’lib, dvigatel tirsakli vali tez aylansa radiator suyuqligi ham shuncha tez harakatlanadi.

Ichki yonuv dvigatelini sovutish tizimi - bu har xil ish rejimlari va sharoitlarida dvigatelning optimal haroratini o’rnatish uchun isitiladigan, dvigatel qismlaridan atmosferaga issiqlikni olib tashlashni ta’minlaydigan qurilmalar to’plamidir.

Ishchi aralashmaning yonishi paytida silindrdagi harorat  $2000^{\circ}\text{C}$  yoki undan yuqori darajaga yetadi. Sovutish tizimi dvigatelning optimal issiqlik holatini  $80-90^{\circ}\text{C}$  oralig’ida saqlash uchun mo’ljallangan.

Dvigatelning tejamkorligi va ishonchligi ko’p jihatdan sovutish tizimining normal ishlashiga bog’liq.

Dvigatel haddan tashqari qizib ketganda, uning quvvati pasayadi, yoqilg’i sarfi ortadi, moylash materiallari yonib ketadi, bu qismlarning ishqalanish yuzalarining ortishi, quvur qobiqlarining yorilishi, erishiga, quvur oralig’ining sirtini yo’q qilishga, qoldiq nuqsonlar tiqilib qolishiga va boshqa muammolarga olib keladi.

Dissertatsiyaning “**Paxta terish mashinalari bilan agregatlangan traktor dvigatellarining sovutish tizimi, jumladan tozalovchi qurilma parametrlarini nazariy tadqiqoti**” deb nomlangan ikkinchi bobida dvigatellar sovutish tizimidagi issiqlik almashinish jarayonini matematik modeli ishlab chiqilgan.

Harorat termodinamikaning eng chuqur tushunchalaridan biri bo’lganligi sababli, sovutish tizimida sodir bo’ladigan issiqlik jarayoni quyidagi tenglama bilan tavsiflanishi mumkin


$$m \times di = dq_B + dq_{atrof - muhit} - dq_{rad} \quad (1)$$

bu yerda  $di$  - tizim entalpiyasining o'zgarishi,  $i$  - entalpiya,  $m$  - tizim massasi,  $dq_B$  - tizimdagi ichki issiqlikni tarqalishi,  $dq_{atrof-muhit}$  - tizimning atrof-muhitga uzatiladigan issiqligi,  $dq_{rad}$  - suyuqlik radiatorida issiqlikni tarqalishi.

Yuqoridagi tenglamani har bir hadini  $C_p = const$  va  $di = C_p dT$  holat uchun quyidagicha yozamiz:

$$\begin{cases} m \times di = m_s \times c_s \times dT_s + m_a \times c_a \times dT_a \\ dq_B = Q_B \times dt \\ dq_{atrof-muhit} = k \times F \times (T_{atrof-muhit} - T_s) \times dt \\ dq_{rad} = Q_{rad} \times dt \end{cases} \quad (2)$$

bu yerda  $m_s, m_a$  - suyuqlik va agregat massalari;  $c_s, c_a$  - suyuqlik va agregatlarning issiqlik sig'imi;  $dT_s, dT_a$  - suyuqlik va agregatlarning haroratini joriy qiymatlari;  $T_s, T_{atrof-muhit}$  - suyuqlik va atrof-muhit haroratining joriy qiymatlari;  $F$  - tizimning tashqi issiqlik uzatilishining yuza maydoni;  $k$  - atrof-muhitga o'rtacha hisoblangan issiqlik uzatish koeffitsiyenti;  $Q_B$  - tizimdagi issiqlik manbai quvvatining joriy qiymati;  $Q_{rad}$  - suyuqlik radiatorida issiqlik tarqalishi quvvatining joriy qiymati.



2-rasm. Sovutish tizimining issiqlik balansi sxemasi

Sovutish tizimini shartli ravishda uch bo'limga ajratishimiz mumkin, 1-bo'lim sovutish devorlari 1, ichki trubkalar 2,4,6, termostat 3 va suv nasosi 5 dan iborat. 2-bo'lim shlanglar 7,9,11,13, radiator 8, kengayish baki 10 va oqim almashtirgich 12 dan iborat. 3-bo'lim esa shlanglar 14,16 va kabina radiatori 15 dan iborat.

Yuqoridagi keltirilgan uchta bo'lim uchun quyidagi tenglamalar tizimini yozamiz:

$$\begin{cases} i_1 \frac{dT_1}{dt} + (kF_I + \theta_2)T_1 + \theta_2 T_2 + \theta_3 T_3 = Q_{B1} \\ i_2 \frac{dT_2}{dt} + \theta_2 T_1 + (kF_{II} + \theta_2)T_2 + \theta_3 T_3 = Q_{B2} \\ i_3 \frac{dT_3}{dt} + (kF_{III} + \theta_3)T_3 + \theta_3 T_2 = Q_{B3} \end{cases} \quad (3)$$

$F_I$ ,  $F_{II}$ ,  $F_{III}$  - 1, 2 va 3-bo'limlarning tashqi issiqlik uzatish yuzalarini maydonlari quyidagi ifodalar bilan belgilanadi:

$$F_I = F_1 + F_2 + F_3 + F_4 + F_5 + F_6,$$

$$F_{II} = F_7 + F_8 + F_9 + F_{10} + F_{11} + F_{12} + F_{13},$$

$$F_{III} = F_{14} + F_{15} + F_{16},$$

bu yerda  $F_1 \dots F_{16}$  1-16 joylashuvlari alohida elementlarning tashqi issiqlik uzatish yuzalarining maydoni;  $T_1$ ,  $T_2$  va  $T_3$  - quyidagi ifodalar bilan belgilanadigan bo'limlarning orttirma harorati:

$$T_1 = \tilde{T}_1 - T_{atrof - muhit}, T_2 = \tilde{T}_2 - T_{atrof - muhit}, T_3 = \tilde{T}_3 - T_{atrof - muhit},$$

$i_1$ ,  $i_2$  va  $i_3$  - bo'limlarning issiqlik tarkibi; u quyidagi ifodalar orqali aniqlanadi:

$$i_1 = \sum_{j=1}^P c_j m_j, i_2 = \sum_{g=1}^n c_g m_g \quad \text{va} \quad i_3 = \sum_{y=1}^k c_y m_y$$

bu yerda  $c_j$ ,  $c_g$ ,  $c_y$  - materiallarning massaviy issiqlik sig'imi;  $m_j$ ,  $m_g$ ,  $m_y$  - materiallarning massasi;  $Q_{B1}$ ,  $Q_{B2}$  va  $Q_{B3}$  - vaqt birligidagi issiqlik hosil qilish davri uchun o'rtacha ko'rsatkichlar, ular quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{B1} = p_1 \frac{Q_1}{\eta_{n.umumf.i.k}} - Q_{B2}, \quad Q_{B2} = p_2 \times Q_2, \quad Q_{B3} = p_3 \times Q_3$$

bu yerda  $p_1$  - nasosning chiqishidagi bosimi;  $Q_1$ ,  $\eta_{n.umumf.i.k}$  - haqiqiy oqim tezligi va nasosning umumiy f.i.k;  $p_2, Q_2$  - ikkinchi bo'limdagi bosim va oqim tezligi;  $p_3, Q_3$  - uchinchi bo'limdagi bosim va oqim tezligi;  $\theta_1, \theta_2, \theta_3$  - har bir sikl uchun o'rtacha bo'limlar orasidagi o'ziga xos issiqlik oqimlari (harorat darajasiga qarab) ifoda bilan aniqlanadi

$$\theta_1 = Q_1 \rho_{suy} c_{suy}, \quad \theta_2 = Q_2 \rho_{suy} c_{suy}, \quad \theta_3 = Q_3 \rho_{suy} c_{suy}$$

Agar quyidagi belgilanishlar kiritsak:

$$\begin{aligned} a_{11} &= \frac{kF_1 + \theta_2}{i_1}; \quad a_{22} = \frac{kF_2 + \theta_2}{i_2}; \quad a_{13} = \frac{kF_3 + \theta_3}{i_3} \\ a_{12} &= -\frac{\theta_2}{i_2}; \quad a_{21} = -\frac{\theta_2}{i_1}; \quad a_{31} = -\frac{\theta_3}{i_1}; \quad a_{23} = -\frac{\theta_3}{i_2}; \quad a_{33} = -\frac{\theta_3}{i_3} \end{aligned} \quad (4)$$

u holda (2.16) tenglamalar sistemasini quyidagicha yozish mumkin

$$\begin{cases} \frac{dT_1}{dt} + a_{11}T_1 - a_{21}T_2 - a_{31}T_3 = \frac{Q_{B1}}{i_1} \\ \frac{dT_2}{dt} - a_{12}T_1 + a_{22}T_2 - a_{23}T_3 = \frac{Q_{B2}}{i_2} \\ \frac{dT_3}{dt} + a_{13}T_3 - a_{33}T_2 = \frac{Q_{B3}}{i_3} \end{cases} \quad (5)$$

Shunday qilib, (5) tenglamalar tizimi boshlang'ich va chegaraviy shartlar bilan birgalikda dvigatel sovutish tizimining matematik modelini tashkil etadi.

Tegishli qatorga kirishdagi harorat farqi bilan bog'liq bo'lgan issiqlik uzatish koeffitsiyentlari bir-biriga teng bo'lishini hisobga olsak, markaz ichidagi bir qator naychalar uchun  $Nu_{D_{umum}}$  ning o'lchovsiz issiqlik uzatish koeffitsiyentini

aniqlash uchun ifodani taqdim etish mumkin:

$$Nu_{D_{umum}} = \frac{1}{n-1} 0,25Pe_{D_{ekv}} \frac{D_{ekv}}{L'} \left\{ 1 - \left[ 1 - \frac{Nu_{D_{ekv}}}{0,25Pe_{D_{ekv}} \times \frac{D_{ekv}}{L'}} \right]^{n-1} \right\} \quad (6)$$

Radiator trubalarining koridor joylashuvi va radiator yadrosi trubalarining pog'onali joylashuvi bilan  $c > 1, D_{ekv.k} = \frac{4c}{\pi} (1 - \frac{\pi}{4c}) L'$  quvurlarining nisbiy uzunligi qadami bilan,  $\alpha$ -harorat o'tkazuvchanligi koeffitsiyenti, m<sup>2</sup>/s; n-chuqurlikdagi quvur qatorlari soni bilan aniqlanadi.

Radiatorning issiqlik o'tkazuvchanligini o'lchovsiz issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $Nu_{D_{umum}}$  yordamida aniqlash uchun hisob-kitoblarni amalga oshirayotganda, V. Nusselt tomonidan taklif qilingan ifoda to'g'ri keladi:

$$Nu_{D_{umum}} = \frac{\alpha_{umum} \times D_{ekv}}{\lambda}, \quad \alpha_{umum} = \frac{Nu_{D_{umum}} \times \lambda}{D_{ekv}}$$

bu yerda  $\lambda$  - issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, Wt/m<sup>2</sup>°C.

Radiator yadrosining chuqurlikdagi barcha quvurlar qatorlari uchun  $Nu_{D_{umum}}$  koeffitsiyentining ifodasi quyidagi bog'liqlik bilan ifodalanadi.

$$Nu_{D_{umum}} = \frac{1}{n} 0,25Pe_{D_{ekv}} \frac{D_{ekv}}{L'} \left\{ 1 - \left[ 1 - \frac{Nu_{D_{ekv}}}{0,25Pe_{D_{ekv}} \times \frac{D_{ekv}}{L'}} \right]^n \right\}, \quad (7)$$

bu ifodada  $Nu_{D_{ekv}}$  radiator yadrosi quvurlarining har qanday ichki qatori uchun o'lchovsiz issiqlik uzatish koeffitsiyenti bo'lib, u  $\frac{D_{ekv}}{L}$  nisbati asosida aniqlanadi.

O'lchovsiz issiqlik uzatish koeffitsiyenti  $Nu_{D_{umum}}$  ni, keyin esa  $\alpha_{umum}$  issiqlik uzatish koeffitsiyentini aniqlash radiator sirtining issiqlik o'tkazuvchanligini hisoblash imkonini beradi, buning uchun quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$Q_r = \alpha_{umum} \times F_r (t_F - t_{W_{o'rt}}), \quad (8)$$


bu yerda  $F_r$  - radiator sovutish yuzasi,  $m^2$ ;  $t_{W_{o'rt}}$  - radiatorning markazi orqali aylanib yuradigan havoning o'rtacha harorati,  $^{\circ}C$ .

Bundan radiatorning kerakli sovutish yuzasi:

$$F_r = \frac{\Delta Q_r}{\alpha_{umum} \times (t_F - t_{W_{o'rt}})} \quad (9)$$

Qo'shimcha tozalovchi qurilma dvigatelning sovutish tizimida muhitni (suv, antifriz, yoki maxsus sovutuvchi suyuqliklar) toza va har doim belgilangan standartlarga muvofiq saqlash maqsadida o'rnatiladi.

Dvigatel sovutish tizimiga o'rnatilgan qo'shimcha tozalovchi qurilmaning prinsipial sxemasi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. Paxta terish mashinalari bilan agregatlangan dvigatellarining sovutish tizimiga o'rnatilgan qo'shimcha qurilmaning prinsipial sxemasi.

1- kompressor; 2- resiver; 3- ventil; 4- kollektor; 5- dvigatel; 6- ventilyator; 7- forsunka; 8,10- datchiklar; 9-radiator; 11- setka, 12-truboprovodlar

Qurilmadagi kompressor 1 ga kuch dvigatel tirsakli validan tasma orqali uzatiladi (3-rasmga qarang). Kompressor resiver 2 ga ulanadi. Resiverdagi havo bosimini truboprovodlarga o'tkazishni OCHISH yoki BERKITISH ventil 3 orqali amalga oshiriladi. Resiverdan kelayotgan havo massasini taqsimlash uchun kollektor 4 dan foydalaniladi. Kollektor havo massasini truboprovodlar 12 orqali havo purkash elementlari (forsunkalar) 7 ga yetkazib beradi. Forsunkalar bosim ostida havo oqimi orqali radiator 9 va setka 11 yuzalarini to'sib qolgan chang va mayda zarralardan tozalaydi.

Sovutish tizimining ishlash sharti quyidagi jarayonlarda o'z ichiga oladi. Sovutish tizimi atmosfera haroratidan to maksimal haroratga chiqqunicha bo'lgan oraliqdagi jarayonlar sodir bo'lish sxemasini 3 xil muhitda ko'rishimiz mumkin.


1-holat. Dastlabki bosqichda dvigatel yurgizilganda sovutish tizimi harorati atmosfera harorati bilan bir xil 30°C deb olinib, bu tizimda suyuqlik ichki aylanish doirasi bo'ylab aylana boshlaydi. Bu holatda radiatorga o'tish yo'li berk deb shart kiritiladi va quyidagi 3-rasm ko'rinishiga keladi. Suyuqlik harakati 11 minut ichida 112°C gacha keskin oshadi. So'ngra moneton o'sish shaklida 60 minutda - 125°C, 120 minutda - 140°C gacha oshadi.



3-rasm. Radiatorga o'tish yo'li berk holatdagi grafik ko'rinishi


Qisqa vaqt oralig'ida sovutish suyuqligi haroratining ko'tarilishi bu dvigatelga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay butun sovutish tizimini ishdan chiqishiga olib keladi.

2-holat. Dvigatel ma'lum vaqt oralig'ida ishlashi mobaynida suyuqlikning radiator tomon oqib o'tishini nazorati termostat orqali amalga oshiriladi. Ichki aylanish doirasida harakatlangan suyuqlikning harorati ko'tarilishi natijasida harorat 80°C ga yetganda termostat ochiladi va suyuqlik radiator tomon harakatlana boshlaydi. Radiatorga kirishdagi suyuqlik harorati ratsional haroratdan yuqori bo'ladi. Bu jarayon 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. Radiatorga kirish nuqtasidagi suyuqlik haroratining grafik ko‘rinishi

3-holat. Radiatorning mayin naychalari orqali oqib o‘tgan suyuqlik harorati asta sekinlik bilan pasayib boradi. Natijada radiator dan keyingi suyuqlik harorati ratsional haroratgacha pasayadi (5-rasm)



5-rasm. Radiator dan chiqish nuqtasidagi suyuqlik haroratining grafik ko‘rinish


Bu holatlarni nazorat qilish uchun chegaralar kiritib olishimiz zarur. 1-holat uchun shart  $T_1 > 85^{\circ}\text{C}$  dan yuqori harorat hisoblanib, bu jarayonda radiator old setkasi maydoni mayda changlardan tozalanmagan holat uchun olinadi. Bu to‘siq radiator devorlaridagi issiqlikni zarur tarzda atmosferaga olib chiqolmaydi. Shuningdek, dvigatel devorlaridagi issiqlik zarur haroratgacha sovutilmasligi tizimda muammolarni keltirib chiqarishga sabab bo‘ladi. Bu muammoni bartaraf qilish uchun setka yuzasini tozalovchi qo‘shimcha qurilmadan foydalanishimiz kerak. Qurilma havo bosimini 5 MPa gacha hosil qila oladi va radiator setkasining yuza maydonini changlardan tozalaydi va radiator ishlashi orqali suyuqlikni  $80^{\circ}\text{C}$  haroratgacha sovutib berishni ta‘minlaydi. Bu jarayon avtomatik tarzda dvigateldagi haroratni nazorat qiluvchi datchiklar orqali amalga oshiradi. Agar dvigatel qizib ketishni boshlasa havo bosimi bilan qo‘shimcha tozalash qurilmasi ishga tushib radiator setka maydonini tozalalaydi, bu jarayon 2-3 sekund vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi.



6- rasm. Dvigatel sovutish tizimidagi barcha holatlar uchun umumiy grafik ko‘rinishi

Nazariy tadqiqotlar natijalarini tahlili 3 holat uchun ko‘rib chiqilib, 1-holatda suyuqlik harakati 11 minut ichida  $112^{\circ}\text{C}$  gacha keskin oshib, so‘ngra monoton o‘shish shaklida 60 minutda -  $125^{\circ}\text{C}$  ni, 120 minutda -  $140^{\circ}\text{C}$  gacha oshishi kuzatildi. 2-holatda ichki aylanish doirasida harakatlangan suyuqlikning harorati ko‘tarilishi natijasida harorat  $80^{\circ}\text{C}$  ga yetganda termostat ochilib, suyuqlik radiatorga tomon harakatlana boshlaydi va radiatorga kirishdagi suyuqlik harorati ratsional harorat ( $83^{\circ}\text{C}$ ) dan yuqori bo‘ladi. 3-holatda radiatorning mayin naychalari orqali oqib o‘tgan suyuqlik harorati asta sekinlik  $80^{\circ}\text{C}$  gacha pasayaib borishi aniqlandi.

Olingan nazariy natijalarni eksperimental natijalarga mosligini tekshirish maqsadida solishtirma tahlil amalga oshirilgan. 7-rasmda radiatoridagi harorat o‘zgarishining nazariy va eksperimental natijalari keltirilgan.



